

ЭЪТИРОФ

Кўпгина соҳаларда бўлгани каби ФВВ тизимида ҳам туб ислохотлар жадаллик билан амалга оширилмоқда. Хусусан, Матбуот хизмати ҳамда “Вазият” газетаси – “Муҳофаза” журнали бирлашган таҳририятига ҳам эътибор анча кучайтирилди. Яқинда ушбу таҳририят биносига ташриф буюриб, ижодий жамоа учун яратилган шарт-шароитлар билан яқиндан танишдим ва жуда хурсанд бўлдим. Барча хоналар телефон ва замонавий компьютер жиҳозлари билан таъминланган.

Шу ўринда айтиш лозимки, салкам чорак аср давомида бирлашган таҳририят турли жойларга кўчиб ишлашига тўғри келган. Жамоа аъзолари учун муқим жой бўлмаган эди. Шу боис, шароитлари етарли бўлмаган биноларда ҳам меҳнат фаолиятини олиб боришига тўғри келган. Раҳбарият томонидан қаратилаётган юксак эътибор туфайли ижодий жамоа аъзолари самарали иш фаолиятини олиб боришмоқда. Бунинг учун ФВВ раҳбариятига чексиз миннатдорчилигимни билдираман. Бирлашган таҳририят жамоасига эса ижодий парвозлар тилайман.

Эргаш ИКРОМОВ,
ФВВ Фахрийлар Марказий кенгаши
раиси,
Жамоатчилик асосида назорат
комиссияси раҳбари,
истеъфодаги полковник.



ДОЛЗАРЪ МАСАЛАЛАР МУҲОКАМАСИ

Фавқулдда вазиятлар вазири ўринбосари полковник Х.Алибаев бошчилигидаги Ишчи гуруҳ томонидан Наманган ҳамда Фарғона вилоятининг барча шаҳар ва туман ФВ бўлимлари шахсий таркибининг маънавий-маърифий ва ахлоқий-руҳий тайёргарлиги ўрганилди.

Хусусан, Наманган, Фарғона, Қўқон, Қувасой шаҳарлари, Наманган, Чортоқ ва Данғара туманлари ФВ бўлимлари шахсий таркиби билан ўтказилган учрашувлар давомида мамлакатимизда етук ва малакали ҳарбий кадрларни тайёрлаш, уларнинг оилалари учун муносиб ҳаёт шароитларини яратиш давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бирига айланганлиги алоҳида

таъкидланди. Тизим ходимларини онгу тафаккурига Ватан ва халқ манфаатларига хизмат қилиш шарафли ҳамда муқаддас бурч эканини англаштириш, қасамдига содиқ бўлиш ва касбий бурчини бажаришда қонунийликка қатъий риоя этиш лозимлиги қайд этилди. Миллий ўзликни англаш ва жанговар руҳни, ватанпарварлик тарбиясини кучайтириш, ҳарбий хизматчиларнинг интеллект

туал салоҳиятини юксалтиришга жиддий аҳамият қаратиш зарурлиги эслаб ўтилди.

Жараёнда ФВВ Сейсмопрогностик мониторинг маркази “Чортоқ” комплекс-прогностик станциясига ҳам борилиб, у ерда яратилган шароитлар, иш жараёни ва асбоб-ускуналарнинг ҳолати кўздан кечирилди. Фаолиятни янада самарали ташкил этиш бўйича раҳбар ходимларга топшириқлар берилди.

ТАНТАНАЛИ ТАДБИР

ФВВ Фуқаро муҳофазаси институтида магистрантларнинг тантанали битирув тадбири ташкил этилди. Тантанали тадбирда Фавқулдда вазиятлар вазири ўринбосари полковник Х.Алибаев, ФВВ Академияси бошлиғи генерал-майор Р.Ҳайдаров, вазирлик вакиллари, институт шахсий таркиби ва битирувчиларнинг ота-оналари иштирок этишди.

Тадбир давомида сўз олганлар томонидан битирувчиларга келгуси фаолиятида юксак масъулият, ҳалоллик ва камтарлик фазилатларини намоён этиб, мамлакатимизга садоқат билан хизмат қилишларига ишонч билдирилди. Қайд этилганидек, сафда турган битирувчи-

ларга ўтган давр мобайнида тажрибали профессор-ўқитувчилар томонидан мутахассисликлар бўйича замонавий моддий-техник база асосида таълим-тарбия берилди. Таҳсил олиш жараёнида уларни юксак профессионал тайёргарликка, энг илғор инновацион билим ва кўникмаларга эга бўлишларига, хорижий тилларни ўрганишларига алоҳида эътибор қаратилди. Натижада битирувчиларнинг ҳарбий, ҳуқуқий билим ва кўникмалари юксалиши билан бирга, уларнинг қалбида ватанпарварлик, садоқат ва матонат туйғулари янада мустаҳкамланди.

Ўз навбатида, магистрларга келгусидаги хизмат фаолиятларида улкан марралар тилаб қоламиз.



Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

Ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларнинг бандлигини таъминлаш ва бўш вақтлари мазмунли ўтишини ташкиллаштириш мақсадида оталиққа олинган, ижтимоий қўмакка муҳтож ва ногиронлиги бўлган ёшлар билан яқка тартибда ишлар йўлга қўйилиб, улар иштирокида турли тадбирлар ташкил этилмоқда.

МУҲИМ ВАЗИФА

Хоразм вилояти Урганч тумани "Оқ олтин" маҳалласидан бириктирилган ёшлар иштирокида ўтказилган очиқ мулоқот ҳам шулар жумласидан. Унда маҳалла еттичилиги билан ёшларни касб-хунарга йўналтириш, жамиятда ўз ўрнини топишига ёрдам кўрсатиш масалаларига урғу берилди.

Шунингдек, ёт ғоялар таъсирига тушиб қолмаслик, диний экстремизм ва терроризмнинг аянчли оқибатлари, шу билан бирга, ҳуқуқбузарликларга қарши муросасиз курашиш борасида атрофлича маълумотлар берилди.

У. НИЗАМОВ,
Урганч ҳарбий прокурори,
адлия подполковниги.

ВАТАНПАРВАРЛИК ТИМСОЛИ

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кино санъати саройида прокуратура органлари ходимлари иштирокида маънавий-маърифий тадбир бўлиб ўтди.

Унда режиссёр Жаҳонгир Аҳмедовнинг "Баҳодир Ялангтўш" тарихий-бадий фильми намойиш этилди.

Фильмда Регистон мажмуаси бунёдкори, Самарқандга ҳокимлик қилган саркарда Баҳодир Ялангтўшнинг ҳаёт йўли ва фаолияти ҳикоя қилинади. Эл севган санъаткорлар Матёқуб Матчонов, Боир Холмирзаев, Бекзод Муҳаммадкаримов, Тоҳир Саидов каби маҳоратли актёрлар роль ижро қилган. Баҳодир Ялангтўш образини таниқли актёр Ҳабибулло Низомов гавдалантирган.

Тадбирнинг иккинчи қисмида ходимлар Алишер Навоий номидаги Миллий кино санъати саройидаги кино музейи билан яқиндан танишишди.

А.ҚУРБОНОВ,
Тошкент ҳарбий прокурорининг
ёрдамчиси,
адлия подполковниги.

ТААССУРОТГА БОЙ БЎЛДИ

Шароф Рашидов туманидаги "Шароф Рашидов" болалар соғломлаштириш оромгоҳида "Миллий армиямиз ёшлар нигоҳида" шиори остида ватанпарварлик сайли ўтказилди.

Тадбир Жиззах ҳарбий прокуратураси, ҳарбий қисм қўмондонлиги, сафарбарлик чақируви резерви батальони, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи вилоят Кенгаши, Миллий гвардия, қўриқлаш ва фавқулодда вазиятлар бошқармалари ҳамкорлигида ташкил этилди.

Ҳарбий оркестр садола-ри билан байрамона руҳда бошланган фестивалда ҳарбийларнинг қўл жанги сахна кўринишлари, аслаҳалар намойиши, камондан отиш, арқондан сакраш ва найза улоқтириш беллашувлари тадбирга ўзгача шуқуқ бағишлади.

Д.БАЗАРБАЕВ,
Жиззах ҳарбий
прокурорининг ёрдамчиси,
адлия лейтенанти


УЧ АВЛОД УЧРАШУВИ



ФВВ Бошланғич тайёр-гарлик ва малака ошириш марказида истеъфодаги полковник Қобилжон Эргашев ва бошланғич тайёргарликдан ўтаётган тингловчилар, шунингдек, "Ватанга содиқ ёшлар" ўқув йиғини қатнашчилари иштирокида "Уч авлод" учрашуви тадбири ташкил қилинди.

Тадбирда ёш ҳарбий хизматчи ҳамда хизматчиларга ҳарбий хизмат давомида юзага келадиган муаммолар ва уларнинг ечими тўғрисида тушунчалар берилди.

Ф.МАВЛОНОВ,
ФВВ БТваМОМ кадрлар бўлими бошлиғи, подполковник.



ЙИҒИЛИШ

"Қамчиқ" МҚЁҚБда ҳисобот йиғилиши ўтказилди.

Тадбирда жорий йилнинг май ойида аҳоли ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш, шахсий таркибни ижтимоий муҳофаза қилиш, навбатчиликдаги ходимлар учун шарт-шароит яратиш борасида

бажарилган ишлар атрофлича таҳлил қилинди. Бошқарма бошлиғи полковник Ҳ.Бобонов йўл қўйилган камчиликлар ва эришилган ютуқлар хусусида тўхталиб ўтди.

Ш.АБДУСАТТОВА,
"Қамчиқ" МҚЁҚБ
бош мутахассиси.

"Навоий кон-металлургия комбинати" АЖ ва "Навоий-уран" ДК объектларида ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази ходимлари томонидан Кармана туманидаги "Навоий кон-металлургия комбинати" АЖга қарашли "Дўстлик" Агрофирмасининг ишчи ва ходимлари билан тарғибот тадбири ўтказилди.

ТАВСИЯЛАР БЕРИЛДИ

Тадбир давомида комбайн ва бошқа бир қатор техникаларнинг ёнғинга қарши ҳолати кўздан кечирилди. Аниқланган камчиликлар юзасидан объект раҳбарларига тегишли тартибда амалда бажарилиши юзасидан зарур тавсиялар берилди. Ёнғин ўчириш воситаларининг ишлатилиши ва уларнинг қулайлик томонлари тўғрисида ҳам тушунчалар берилиб, ёнғиндан огоҳлантирувчи тарғибот материаллари тарқатилди. Корхона ҳудудида парваришланаётган пилла қуртларини боқувчи ишчи-хизматчилар билан фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш юзасидан суҳбатлар олиб борилиб зарур тавсиялар берилди.

Марказ ва унинг қуйи тизим ходимлари томонидан корхона ҳудудидаги барча ишлаб чиқариш цехларида ёнғинларнинг олдини олишга қаратилган текширувлар ўтказилди. Унда йирик қувватда ишловчи сут ва сут маҳсулотларини тайёр ҳолга келтирувчи қурилмаларнинг созлиги ва ерга улаш тизимлари билан таъминланганлиги бинодаги бирламчи ёнғин ўчириш воситалари билан жиҳозланганлиги ва созлик ҳолатлари кўздан кечирилди.

М.ҲАЙИТОВ,
"НКМК" АЖ "Навоийуран"
ДК объектларида ёнғин
хавфсизлигини таъминлашни
ташкил этиш маркази гуруҳ
бошлиғи, катта сержант.

ҚАҲРАМОНЛАР НОМИ БАРҲАЁТ

Тошкент ҳарбий прокуратураси ва куч тузилмалари ҳамкорлигида ёшлар билан қатор ватанпарварлик сайиллари, маънавий-маърифий тадбирлари ўтказиб келинмоқда.

Тошкент ҳарбий округи қўшинлари қўмондонлиги ва мутасадди ташкилотлар билан ҳамкорликда ташкил этилган «Хотира турнири» ҳам бу борадаги тадбирларнинг узвий давоми бўлди.

"Ёшлар ойлиги" доирасида "Қаҳрамонлар номи барҳаёт" шиори остида ўтган мусо-

бақа Султан Якубов хотирасига бағишланди.

Унда ҳарбий хизматчилар, Оҳангарон шаҳридаги маҳалла ёшлари ва мактаб ўқувчилари спортнинг шахмат ва шашка тури бўйича беллашди.

Ғолибларга эсдалик совғалар, диплом ва медаллар топширилди.

К.РЎЗМЕТОВ,
Тошкент ҳарбий
прокурорининг катта
ёрдамчиси,
адлия полковниги.

ЁШЛАР САЙЛИ

Қашқадарё вилояти Ғузор туманида ёшлар фестивали ўтказилди.

Сайл Қарши ҳарбий прокуратураси, ҳарбий қисм қўмондонлиги, Ёшлар ишлари агентлиги вилоят тузилмаси ва "Шўртангазкимё" мажмуаси ҳамкорлигида ташкил этилди.

Унда турли спорт ўйинлари бўйича беллашувлар ўтказилди.

Фестиваль якунида ғолиблар эсдалик совғалар билан тақдирланди.

А.НАЗАРОВ,
Қарши ҳарбий
прокурорининг катта
ёрдамчиси,
адлия подполковниги.

Суд залида ҳозир бўлганларнинг айримлари панжара ортида ўтирган 26 ёшли йигитга ачиниш билан термулса, бошқаларининг нигоҳида нафрат учкунлари чақнайди. Биринчи тарафдагилар унинг ёш умри хазон бўлаётганига ачинса, бошқалар эса шу ёшда бир эмас, бир нечта жиноятга қўл ургани учун унга ғазаб билан қарашди.

ХАЗОН БЎЛГАН УМР

Афсуски, энди вақтни ортага қайтаришнинг иложи йўқ. С.Т. 20 ёшида жиноятга қўл урган эди. Бироқ у хулоса чиқармади. Ёшликнинг куч-ғайратидан унумли фойдаланишни ўзига эп кўрмади. С.Т. шу йил 24 январь куни Шота Руставели кўчасида автомашина ичида бўлган жабрланувчи қизга тегишли 2.000.000 сўмлик телефон аппарати, 5.000.000 сўмлик ноутбук ҳамда бир дона 100.000 сўмлик ноутбук сумкасини қаровсиз қолдирилганлигидан фойдаланиб, яширин равишда ўғирлаб воқеа жойидан яширинган.

– Аслида бу қизга уйланмоқчи бўлиб учрашган эдим, – деди судда судланувчи С.Т. – Бироқ қизнинг ота-оналари рад жавобини беришди. Шунда сўнг у билан гаплашиб олмоқчи бўлдим. Биз учрашдик. Таксига ўтириб гаплашиб кетаётганимизда қиз Шота Руставели кўчасига келганимизда ҳужжатларидан нусха олиш мақсадида ҳайдовчидан машинани тўхтатишни сўради. Қиз нусха олиш учун дўконга кириб кетганлигидан фойдаланиб, унинг машина ичида қолдирилган телефон ва ноутбукни ўғирладим. Те-

лефонни номаълум шахсга 630.000 сўмга, ноутбукни эса 1.000.000 сўмга сотдим. Энди бошқа ўғрилик қилмайман. Енгилроқ жазо беришингизни сўрайман.

Суд судланувчига жазо тайинлашда айбига иқрорлиги, қилмишидан пушаймонлиги ҳамда бошқа жиҳатларни эътиборга олди. Ўғриликни "қасб" қилган С.Т. 4 йил 1 ой муддатга озодликдан маҳрум этилди. У жазони қаттиқ тартибли колонияда ўташи белгиланди.

А.ҲАКИМОВ,
жиноят ишлари
бўйича Яккасарой туман
судининг судьяси.

TAVSIYANOMALAR TOPSHIRILDI



Namangan viloyati FVBda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliy o'quv yurtlari hamda oliy harbiy ta'lim muassasalariga imtiyozli o'qishga kirish huquqini beradigan tavsiyanomalar topshirildi. Tadbirda soha xodimlari hamda ularning oila a'zolari ishtirok etdilar.

Boshqarma boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov tadbirni ochib berib harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini farzandlarini oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish huquqini bergan imtiyozli tavsiyanomalar olganliklari bilan tabrikladi.

Qahramon SATTAROV,
Namangan viloyati FVB Axborot xizmati
boshlig'i, kapitan.

O'QUV

Qashqadaryo viloyatining Shahrizabz shahri, Shahrizabz, Yakkabog' va Kitob tumanlari Xalq ta'limi bo'limlari majlislar zalida, viloyat hududidagi barcha bolalarni yozgi dam oldirish va sog'lomlashtirish oromgohlarining direktorlari va bosh yetakchilari hamda tarbiyachilari bilan "Oromgohlarda dam olayotgan va sog'lomlashtirilayotgan bolalar hamda ularga xizmat ko'rsatayotgan hodimlarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar bo'yicha hushyorligini oshirish" mavzusida o'quv seminarlari o'tkazildi.

Tadbirlar davomida "Aholi va hududlarni tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni tashkil etish", "Cho'milish suv havzalarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz holatlar va ularni oldini olish", "Oromgohlarda "Yosh qutqaruvchi" musoboqalarini tashkil etish hamda o'tkazish", "Tog'li hududlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan Favqulodda vaziyatlar", "Jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish", "Bolalarni yozgi dam oldirish va sog'lomlashtirish oromgohlarining sanitariya-gigiyena holati va dezinfeksiya ishlarini amalga oshirish" mavzularida ma'ruzalar qilindi.

A.ABDURASHIDOV,
Qashqadaryo viloyati FVB
ShShHXO'M boshlig'i, kapitan.
K.DAVKAROV,
katta o'qituvchi



BO'LIM BIRINCHILIGI

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" Davlat korxonasi obektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish Markazi "Shimoliy" kon boshqarmasi obektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi va uning tasarrufidagi yong'in-qutqaruv qismlarining terma jamoalari o'rtasida "Yong'in-qutqaruv sporti"ning 4 turi bo'yicha bo'lim birinchiligi musobaqasi o'tkazildi.

Terma jamoalar 1-tur "100 metrga to'siqlar osha yugurish", 2-tur "Ishg'ol qilish narvonida 4 qavatga ko'tarilish", 3-tur "Yong'in o'chirish estafetasi" hamda 4-tur "Jangovar yoyilish" bo'yicha o'zaro bellashib, g'oliblar aniqlandi.

Murosasiz kechgan bahslar-

da 9-yong'in-qutqaruv qismi terma jamoasi 3-o'rinni, 8 ball bilan 6-yong'in-qutqaruv qismi terma jamoasi 2-o'rinni va 6 ball bilan 8-yong'in-qutqaruv qismi terma jamoasi faxrii 1-o'rinni egallab, bo'lim birinchiligi musobaqasi g'olibiga aylandi.

Musobaqa so'ngida g'olib va sovrindorlarga esdalik sovg'alari, faxriy yorliq hamda bo'lim boshlig'ining ko'chma kubogi topshirildi.

T.RO'ZIYEV
bo'lim boshlig'ining
xizmatni tashkil
etish bo'yicha o'rinbosari,
podpolkovnik.
D.ASADOV,
bo'lim kichik inspektori,
serjant.

OROMGOHLARDA...

Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida joylashgan "Oltiariq" bolalar oromgohida targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. Olib borilgan o'rganishlar davomida oromgoh mutasaddi rahbarlariga yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniq keltirib o'tilib ushbu kamchiliklar qisqa fursatlarda tegishli mas'ullar tomonidan bartaraf etilishi nazoratga olindi.

Tadbir davomida maskanning barcha yo'nalishlari birma bir ko'zdan kechirildi va oromgohning tegishli mas'ullariga zaruriy taklif va tavsiyalar berildi.

Ahldin ALIJONOV,
Farg'ona viloyati
FVB axborot xizmati
boshlig'i,
kapitan.

SHIFOXONADAGI SINOV



Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani FVDT tarkibiga kiruvchi korxonada, tashkilot va muassasalarni jalb qilgan holda "Sayram" MFYdagi viloyat ruhiy asab kasalliklari shifoxonasida ishchi xodimlar ishtirokida qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarining zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga tayyorgarligini oshirish bo'yicha "Zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanish va himoyalash" mavzusida hamkorlikdagi maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Anvarjon ARIPOV,
To'raqo'rg'on tumani FV
bo'limi bo'linma
boshlig'i, mayor.

TIBBIY KO'RIK



Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish o'quv yig'iniga kelgan 302 nafar harbiy xizmatchi va xizmatchilar o'rtasida navbatdagi profilaktik tibbiy ko'rik tadbiri amalga oshirildi.

Tibbiy ko'rik markazda yangi o'quv yig'iniga tinglovchilarni qabul qilish jarayonida markazdagi epidemiologik vaziyatni barqaror ushlab turish, turli ko'rinishdagi yuqumli kasalliklarni kirib kelishining oldini olish hamda mavjud surunkali kasalliklarni erta aniqlab, profilaktik davolash ishlarini olib borish maqsadida barcha tinglovchilar tibbiyot xizmati xodimlari tomonidan amalga oshirildi.

K. YUSUPOV,
FVV BTvaMOM tibbiyot xizmati
feldsheri, kichik serjant.
O. CHORSHANBIYEV,
Markaz tibbiyot xizmati feldsheri,
kichik serjant.



TAVSIYALAR BERILDI

"Qamchiq" MQYOQB Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'li Orzu stansiyasining hamda "Qamchiqavtoy" IYFK DM 549 yo'l bo'limining ishchi hodimlari bilan zilzila sodir bo'lganda qanday harakat qilish bo'yicha amaliy mashq o'tkazildi. Mashq boshida oqibati ayanchli holatlarni keltirib chiqargan zilzilalar bo'yicha misollar keltirib o'tildi. Mashqning amaliy qismida esa har bir ishchi-hodimning ish joyida qanday harakat qilishlari ko'rib chiqildi va mutaxassislar tomonidan tavsiyalar berildi.

Ulug'bek NORBOYEV,
"Qamchiq" MQYOQB Avariya -
qutqaruv otryadi komandiri,
katta leytenant.

E'TIBOR QARATILMOQDA

Sergeli tumani FV bo'limi tomonidan "Oromgoh - 2024" kompaniyasi davrida "sog'lomlashtirish maydonchalari" tashkil etilgan umumta'lim maktablarida profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

Xususan, favqulodda holat, yong'in sodir bo'lganda harakat qilish tartibi, bir lamchi yong'in o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish, maskanda yong'in yuz bergan vaqtda yong'in-qutqaruv bo'limiga xabar berish, obyekt personalining evakuatsiyasini to'g'ri tashkil etish, shuningdek, yetib kelgan yong'in-qutqaruv bo'linmalarini kutib olish kabi holatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Nargiza MIRZAYEVA,
Sergeli tumani FV bo'limi P va NB
kichik inspektori, kichik serjant.

Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga birlashtirilgan yoshlarni favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot tadbirlarida ishtirok etishga tayyorlash o'quv kursiga jamlash rejasi ishlab chiqilgan va ijroga qaratilgan.

SERTIFIKATLAR TOPSHIRILDI

O'quv kurslari yakuni bo'yicha sinovlar o'tkazilib, bir guruh yoshlarga "Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi targ'ibotchisi" sertifikatlari tantanali ravishda topshirildi.

R.ROZABOYEVA,
O'zJOKU harbiy jurnalistika
yo'nalishi talabasi.


BOZOR HUDUDLARIDA

Namangan shahar hududidagi "Sardoba bozori" va "Chorsu universal dehqon bozori" MCHJ hamda "Do'stlik" savdo sanoat bozori AJ hududida yong'inga qarshi holatni yaxshilash maqsadida profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Tadbirlar davomida, boshqarma boshlig'ining profilaktika bo'yicha o'rinbosari podpolkovnik Bahromjon Radjapov tomonidan bozorlar hududida mas'ul xodimlariga texnika hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish yuzasidan yo'riqnomalar berildi.

I.MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot
xizmati yetakchi mutaxassisi.
F.QO'CHQOROV,
Namangan shahar FV bo'limi
inspektori, leytenant.

TAQDIMNOMALAR YUBORILDI



Namangan tumani hududida 155 ta yeroosti suv olish gidrantlari va 147 ta yong'inga qarshi suv hovuzlari mavjud. Ular tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan doimiy ravishda o'rganib borilmoqda.

2024-yilning o'tgan davrida o'tkazilgan o'rganishlar davomida bir nechta yer osti suv olgichlari qarovsiz va nosoz holatda ekanligi, ayrimlari yo'l qoplamalari ostida qolganligi aniqlandi. Kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli tashkilotlarga axborot, taqdimnomalar yuborildi.

I.MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot
xizmati yetakchi mutaxassisi.
I.JO'RAYEV,
Namangan tumani FV bo'limi
boshlig'i o'rinbosari, mayor.



O'RGANISH

"UzAuto Motors" AJ Xorazm viloyati filialida fuqaro muhofazasi bo'yicha "Filial hududida zilzila natijasida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda tuman FVDT xizmatlari bilan filial fuqaro muhofazasi tuzilmalarining harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

D.SAFAROV,
Xorazm viloyati FVB "UzAuto Motors" AJ
obyektlarida yong'in xavfsizligini
ta'minlashni tashkil etish bo'linmasi inspektori,
kapitan.

ZARUR TAYYORGARLIK

"Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi" davomida Surxondaryo viloyati FVB obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan viloyat hududida joylashgan, o'ta muhim va toifalangan obyektlar sirasiga kiruvchi "Termiz xalqaro aeroporti" MCHJda zilzilaga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Aeroport hududida joylashgan "O'ZAEONAVIGATSIYA" Markaziy davlat unitar korxonasi, Termiz havo harakatini boshqarish hududiy bo'linmasi, aeroportning ishlab chiqarish-dispatcherlik xizmati va Yonilg'i-moylash materiallari xizmatida faoliyat yuritib kelayotgan xodimlar bilan yo'riqnomalar o'tkazildi. Shuningdek, "Termiz xalqaro aeroporti" MCHJ ishchi-xodimlari ishtirokida yong'in xavfsizligi bo'yicha yig'ilishlar hamda profilaktik tadbirlar tashkil etiladi.

"Termiz xalqaro aeroporti" MCHJ obyektini uzluksiz elektr toki bilan ta'minlovchi 6 dona TPlar, Favqulodda holatlarda foydalanish uchun 11 dona

elektr generatorlarining sozligi va ularning ishchi holatdaliigi to'liq o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish ishlari amalga oshirildi. Aerovokzal binosidagi hamda bino tashqarisidagi elektron tablo monitorlar orqali "Suv havzalarida cho'milishda ehtiyot bo'lish" va "E'tiborsizlik natijasida yuzaga keladigan yong'inlar" to'g'risida videoroliklar namoyish etildi. Obyekt hududida 5 marotaba olovli ishlari amalga oshirildi.

J. QOSIMOV,
Surxondaryo viloyati FVB
OYXTTEB inspektori, kapitan.

"INDENIM" DA SINOV

Termiz shahridagi "INDENIM" savdo majmuasida FVDTga kiruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda favqulodda vaziyatlar, yong'inlarning oldini olish, sodir bo'lganda

oqibatlarini bartaraf etishdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik mashg'ulot o'tkazildi.

Mashg'ulotning 1-qismida favqulodda holat va yong'inlar sodir bo'lganda har bir xizmatning o'ziga yuklatilgan vazifalari va amalga oshiradigan ishlari to'g'risida yo'riqnomalar berildi.

Shundan so'ng favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda har bir xizmatning o'ziga yuklatilgan vazifalarini qay darajada bajarilishi ko'zdan kechirilib, xato va kamchiliklar tushuntirildi.

F.SHAYMARDANOV,
Surxondaryo viloyati FVB
axborot xizmati yetakchi
mutaxassisi.
Sh.JUMAYEV,
boshqarma xizmat
boshlig'i, mayor.



QAYERDA CHO'MILISH MUMKIN?

Norin tumani hududidan oqib o'tuvchi daryo, soy, anhor va kanallar cho'milish taqiqlangan joylar hisoblanadi. Chunki bu suv havzalari tepa qismi sokin oqqani bilan uning pastki qismida oqim tez bo'lishi, suv ostida qanday jismlar borligi noma'lumligi, suvning sanitariya holati inson salomatligi uchun xavfliligi, ya'ni har xil yuqumli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, har bir fuqarodan taqiqlangan hududlarda cho'milmaslik talab etiladi.

I.TO'XTABAYEV,
Norin tumani FV bo'limi
PN bo'limi inspektori.
D.MURODOV,
PNB inspektori.

MAVSUM ISHLARI

Jizzax viloyati FVB tomonidan Jizzax davlat pedagogika universiteti professor o'qituvchilari va talabalar o'rtasida "Yoz mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish tadbirlarining samaradorligini oshirish" mavzusida seminar tashkil etildi.

Seminar davomida yozgi dam olish mavsumida cho'milish qoidalariga qat'iy rioya qilish lozimligi, bunda eng avvalo, ob-havo quyoshli va shamol bo'lmagan paytda, havo harorati +20-25 °C, suv harorati +17-19 °C dan kam bo'lmagan sharoitda cho'milish kerakligi, qorin och bo'lganda, charchaganda, chanqagan paytda, yaqinda bemorlikdan turganda, spirtli ichimlik iste'mol qilganda, yolg'iz bo'lganda va o'tob urish holatlarida cho'milish mumkin emasligi, taqiqlangan joylarda cho'milish, yosh bolalarni suvda qarovsiz qoldirish, ko'priklarni, damba va daraxtlardan suvga sakrash hamda notanish joylardagi suvlarga sho'ng'ish ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkinligi hayotiy misollar bilan tushuntirildi.

Shuningdek, ma'ruzachilar tomonidan ovqatdan zaharlanish va botulizm kasalligini keltirib chiqaruvchi sabablar va ularning oldini olish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar xususida ma'lumotlar berildi.

A.SAMIYEV,
Jizzax viloyati FVB bo'lim bosh
inspektori, kapitan.

MASHG'ULOTLAR BARDAVOM

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" DK obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi va uning Uchquduq, Zarafshon va Navoiy sanoat maydonlarida amaliy mashg'ulot o'tkazildi.

Unda 3-sonli Tibbiy sanitariya qismining ishchi-xizmatchilariga favqulodda vaziyatlarida to'g'ri harakat qilish va nimalarga e'tibor berish kerakligi tushuntirildi.

M.HAYITOV,
NKMK AJ Yong'in xavfsizligini
ta'minlashni tashkil etish markazi guruh
boshlig'i, katta serjant.

MUVAFFAQIYAT KALITI



Hozirgi kunda O'zbekistonda sport bilan shug'ullanish ommaviy tus olmoqda. Sog'lom turmush tarziga amal qilayotgan yurtdoshlarimiz soni kun sayin ortmoqda.

2024-yil Farg'ona shahrida O'zbekiston universal jang bo'yicha barcha yosh toifalari o'rtasida Osiyo chempionati bo'lib o'tgan edi.

Mazkur musobaqada Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi harbiy xizmatchisi oddiy askar Obidjonov Azamat Dilmurod o'g'li 55 kg. vazn toifasida ishtirok etib, birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Musobaqada 7 yosh va undan kattalar o'rtasida MDH davlatlaridan jami 30 ta jamoadan 750 dan ortiq sportchilar 2 ta yo'nalish bo'yicha 10 ta vazn toifasida o'zaro kuch sinashdilar.

Azamat 13 yildan buyon sportning Kikboks, Shu-sanda yo'nalishida mashg'ulot olib borgan. O'tgan 3 yil mobaynida universal janglarda ishtirok etgan. U 8 karra O'zbekiston chempioni, 2022-yil jahon chempionatida ishtirok etib, birinchi o'rinni qo'lga kiritgan.

Qahramonimizdan sport sohasiga tashlagan ilk qadami haqida so'raganimizda, u bolaligini kulib esga oldi. Maktabdan tez-tez kaltak yeb uyiga kelishi otasi Dilmurod akaning xavotiriga sabab bo'ladi. Vaholanki, o'zini himoya qilish uchun boshlangan sport bugun katta zafarlar olib keldi.

Azamatga muvaffaqiyatga erishishining uchta sababi nima deya savol berganimizda shunday javob berdi: "Mening muvaffaqiyatga erishishimning uchta sababi - ota-onam, ularning duolari va ustozim Baxtiyor Agzamovning fidoyi mehnatlaridir. Shu insonlarga o'z minatdorligimni bildiraman. Ular meni har qanday sharoitda ham qo'llab-quvvatlab, yonimda bo'lishdi.

Azamat birinchi jangida mag'lubiyat alamini totib ko'rgani sababli ham qolgan barcha janglarida g'alabaga erishadi. Qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar eng muhimi ishonch hisoblanadi. Azamat ham janlarda g'olib bo'lishiga ishongan va o'sha ishonch sabab qolgan barcha janglarida g'oliblikni qo'lga kiritganligini aytadi.

Barcha yoshlarimizga Azamatga o'xshab, ulkan marralarni zabt etishini tilab qolamiz.

B. BOTIROVA,
O'zJOKU 1-bosqich talabasi.

MUHIM
TARTIB-QOIDALAR

Yuzaga kelayotgan ko'ngilsiz holatlar va suvdagi halokatlarning aksariyati bolalarning nazoratsiz qoldirilishi oqibatida sodir bo'lmoqda.

Keyingi 5 yil oralig'ida suvda cho'kib halok bo'lgan yoshlarning 95 foizi ota-onalar tomonidan nazoratsiz qoldirilganligi hamda o'zboshimchalik bilan belgilanmagan va taqiqlangan joylarda cho'milishi oqibatida sodir bo'lgan. Katta yoshdagi fuqarolarning suvga cho'kishlariga asosan, spirtli ichimliklar iste'moli sabab bo'layotir.

Ayni paytda bu kabi hodisalar qayta takrorlanmasligi uchun tuman FV bo'limi xodimlari tomonidan belgilanmagan joylarda cho'milmaslik borasida tushuntirish va profilaktika tadbirlari olib borilmoqda.

Sh.MATKARIMOV,
Amudaryo tumani A va HFVMQB
kichik inspektori, III darajali serjant.

TADBIR

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB "Taxiatosh IES" AJ obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'linmasi shaxsiy tarkibi tomonidan "Taxiatosh IES" AJ 2-qozon turbina sexi 8-turbo-generatorida amaliy o'quv mashqi o'tkazildi. Mashg'ulot davomida obyekt ishchi-xodimlari orasidan tuzilgan ko'ngilli yong'in o'chirish drujina a'zolari, 28-sonli yong'in-qutqaruv qismi shaxsiy tarkibi va 16-yong'in-qutqaruv qismi qatnashdi.

I.SABIRBAYEV,
"Taxiatosh IES"
AJ OYOXTTEB inspektori, kapitan.

AHOLINI ZILZILAGA
TAYYORLASH

Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi doirasida Metropolitenda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'limi harbiy xizmatchilari tomonidan bekatlarda o'quv mashqlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni yuqori saviyada o'tkazish, zilzilada o'zini o'zi muhofaza qilish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish uslublarini o'rgatish bo'yicha tadbirlar tashkil etilib kelinmoqda.

N. SOLMANOVA,
Metropolitenda yong'in xavfsizligini
ta'minlash bo'limi inspektori, mayor.

TERMITLAR



Dunyoda termitlarning 2800 dan ko'proq turi ma'lum. Shulardan 160 ta turi yog'och zarar-kunandalaridir. O'rta Osiyoda 4 ta turi, O'zbekistonda 2 ta turi "Anacanthotermes" Kaspiy orti va Turkiston termiti ma'lum. So'nggi yillarda Qoraqalpog'istonning barcha tabiiy maydonlarida Qizilqum, Ustyurt tekisligida termitlarning areallari kengayganligi va termitlardan ko'riladigan zararlarning ko'payishi kuzatilmoqda. Bu muammoning asosiy sababalari cho'l maydonlarining ortishi, tuproqning sho'rlanishi, suv havzalari qurishi, to'qayzorlarning qisqarishidir. Negaki, qurg'oqchilik termitlar yashashi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

N.NURULLAYEVA,
Buxoro viloyati FVB axborot xizmati xodimi.

Jizzax viloyati Zarbdor tumani FV bo'limi tomonidan FVDTga kiruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda BEST GROUP Betlis Textile "BO'STON" MCHJga qarashli tikuvchilik fabrikasida mashg'ulot o'tkazildi.

HAMKORLIKDAGI HARAKAT

Mazkur o'quv mashqi davomida dastlab sodir bo'lgan shartli zilzila natijasida obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalari favqulodda vaziyatlardagi dastlabki harakatlari sinovdan o'tkazildi, shuningdek, favqulodda vaziyatlar davlat quyi tizimiga kiruvchi xizmatlarning favqulodda vaziyat oqibatida yuzaga kelgan avariylarni bartaraf etish, sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirish, jabrlanganlarni evakuatsiya qilish va birinchi yordam ko'rsatish

vaqtidagi hamkorlikdagi harakatlari amalda sinovdan o'tkazildi.

Mashq yakunida erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar muhokama qilinib, mutaxassislar tomonidan ishtirokchilarga qo'shimcha tavsiya va yo'riqnomalar berildi.

I.UMAROV,
Jizzax viloyati FVB axborot
xizmati rahbari, kapitan.
K. TURSUNBOYEV,
Zarbdor tumani FV bo'limi
boshlig'i, kapitan.

OFATGA QARSHI

Zilzilalar yer sharining tektonik jihatdan eng faol bo'lgan tog' tizmalari joylashgan hududlarda ko'proq bo'ladi. Bu joylar geologik iborada yer yuzining belbog'li buzilish joylari deb yuritiladi. Yer sharining kuchli zilzilalar sodir bo'ladigan mintaqalarini seysmik jihatdan faolli-



giga qarab, ikkita asosiy hududga bo'lish mumkin. Birinchisi, geografik kenglik yo'nalishida Alp, Karpat, Kavkaz, Kopetdog', Tyanshan, Pomir, Himolay, ikkinchisi esa meridional yo'nalishda Tinch okeanining ikki qirg'og'i bo'yicha va qisman quruqlik mintaqasida joylashgan. Bunday seysmik faollashgan joylarga Janubiy Amerikadan Antarktida-gacha, Yevropa va Osiyo qit'asi-

ning shimoliy qismi, Markaziy va G'arbiy Afrika, Avstraliya kabi hududlar kiradi. Demak, Markaziy Osiyo uning seysmik jihatdan faol bo'lgan Kopetdog', Tyanshan, Pomir tog'lari tufayli seysmik faol mintaqaga kiradi.

Meteorologlarning tahlillari-ga ko'ra, so'nggi ikki yilda dunyo bo'yicha havo harorati keskin o'zgarib, global isish bilan bog'liq iqlim o'zgarishi jarayonlari respublikamizga ham ta'sir ko'rsatmoqda. 2024-yil yoz mavsumining o'tgan davri mobaynida mamlakatimizda havo haroratining har yillik me'yorlarga nisbatan yuqoriligi sababli sovitish jihozlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj va elektr energiyasi iste'molining keskin oshishi, shuningdek, aholi punktlari va yirik sanoat korxonalari hududlarining qurigan o'simliklardan tozalanmasligi yong'inlar sonining keskin ko'payishiga olib kelmoqda.

R. RAHMATOV,
"O'zbekiston MTRK
Mediamarkazi" DM
OYOXTTEB inspektori,
mayor.

YO'RIQNOMALAR BERILDI

Toshkent viloyati hududida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarining qurilishi davrida yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida, Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, shaharsozlik faoliyati sohasida profilaktika bo'limi va uning quyi tizimlari tomonidan 2024-yilning 1-choragi davomida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Viloyat hududida obyektlar qurilishi uchun ajratilishi tavsiya etilgan yer uchastkalari materiallarini kelishish bo'yicha tushgan 1101 ta elektron murojaatning shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiqligi o'rganilib chiqilib, ulardan 1031 tasida qurilish ishlari olib borilishi uchun ijobiy xulosa va tavsiyalar berildi.

Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha 1198 ta murojaatga asosan 1229 ta loyiha hujjatlarini amaldagi shaharsozlik sohasidagi normativ hujjatlar talablariga

muvofiqligi o'rganib chiqildi va ushbu loyihalarga kiritilishi lozim bo'lgan 1136 ta yong'inga qarshi tadbirlar tatbiq etilgan holda 854 ta loyiha-smeta hujjatlarini kelishilishiga erishildi.

Viloyat hududida "Yagona buyurtmachi xizmati" IKning 2024-yilgi manzilli dasturi asosida 119 ta maskanda yangi qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilayotgan bo'lib, bularning barchasida profilaktik o'rganishlar o'tkazilib qurilish maydonlarida 1301 nafar ishchi-xizmatchi, quruvchi, ochiq olov yordamida ishlovchi payvandchilar, qurilish uchastkasi rahbarlari bilan suhbat va yong'in xavfsizligi yo'riqnomalari tashkillashtirildi.

M.MIRZAXODJAYEV,
Toshkent viloyati FVB
shaharsozlik sohasida
profilaktika bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.

SUV – HAYOT MANBAI

Namangan viloyati Chust tumani hududidagi mavjud 156 ta yerosti suv olish manbalarining holati FV bo'limi xodimlari tomonidan doimiy ravishda o'rganib borilmoqda. O'rganishlar davomida bir nechta yerosti suv olgichlari qarovsiz va nosoz holatda ekanligi, ba'zilari esa yo'l qoplamlari ostida qolganligi aniqlandi. Kamchiliklar yuzasidan tegishli hokimlik va idoralarga axborotnoma va taqdimnomalar kiritilib, bartaraf etilishiga erishildi.

O.UMAROV,
Chust tumani FV bo'limi 25-yong'in-qutqaruv qismi boshlig'i, katta leytenant.

ISTIROHAT BOG'IDA...



Jizzax shahrida joylashgan "O'rda ekologik istirohat bog'i"da o'quv mashqi tashkil etildi.

Mashg'ulot davomida sodir bo'lgan shartli yong'inlarni qisqa muddatda bartaraf etish choralarini ko'rish, jabrlanganlarni qutqarish va tibbiy yordam ko'rsatish, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish va avariya-qutqaruv xizmatlariga o'z vaqtida xabar berish vazifalari bajarildi. Bog' hududidagi attraksionlardagi nosozliklar sababli yuqorida qolib ketgan fuqarolarni maxsus qutqaruv texnikasi va asbob-anjomlari yordamida xavfsiz joyga evakuatsiya qilish tadbirlari jarayonida favqulodda vaziyatlar davlat tizimiga kiruvchi xizmatlarning hamkorlikdagi harakatlari amalda ko'rib chiqildi.

I.UMAROV,
Jizzax viloyati FVB axborot xizmati rahbari, kapitan.
T. ANORBOYEV,
Jizzax shahar FV bo'limi smena boshlig'i, katta leytenant.

SEMINAR

Uychi tumanidagi Namangan muhandislik qurilish institutining 7-binosida "Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi" doirasida institut talaba-yoshlari va professor-o'qituvchilari bilan o'quv seminari o'tkazildi.

Unda ishtirokchilarga favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ushbu holatlar yuzaga kelganda harakatlanish tartibi, zilzilada to'g'ri harakatlanish, cho'milishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bo'yicha tushuncha va yo'riqnomalar berildi.

Q. SATTAROV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.
SH. DAVLYATOVA,
Uychi tumani FV bo'limi inspektori, kichik serjant.



MAVSUMGA SHAYLIK

G'alla – rizq-ro'zimiz, dehqonlarning mashaqqatli mehnati evaziga yetishtiriladigan hosilni yig'ib olishda barcha jihatlariga e'tibor qaratmoq lozim. Shu maqsadda, soha xodimlari tomonidan g'alla o'rim-yig'im mavsumi oldidan ekin maydonlarida yong'inlarning oldini olish borasida zarur amaliy chora-tadbirlar boshlab yuborildi.

Mavsum davomida quyidagilarga amal qiling:

– ko'cha va avtomobil yo'l yoqalaridagi qurigan xas-xashaklar ustiga cho'g'i ochmagan chiqindilarni to'kmang;

– g'alla va boshqa ekin maydonlari yaqinida to'planib qolgan xas-xashaklarni yoq-mang;

– yong'in keltirib chiqaruvchi omillar (sigareta) ni yo'l yoqasidagi qurigan xas-xashaklar ustiga tashlamang.

Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.

TA'LIM-TARBIYA – HAL QILUVCHI KUCH

Bugungi Yangi O'zbekiston davrida barcha sohada, xususan, Qurolli Kuchlar tizimida ham oqilona islohotlar amalga oshirilmoqda. Tabiiyki, ushbu yo'nalishda hurmatli Yurtboshimiz – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni ning sohaga oid farmon va qarorlari hayotbaxsh zamin vazifasini o'tamoqda.

Jumladan, Prezidentimiz raisligida joriy yilning 12 yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda galdagi ustuvor vazifalar ham belgilab berildi.

Mazkur vazifalar qatorida harbiy xizmatchilar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Globallashtirish jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani ta'kidlandi. "Bugungi kunda har birimiz amalida Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur", – dedi Prezidentimiz. Shu munosabat bilan davlat rahbari yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini qayta ko'rib chiqish yuzasidan tegishli mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi. Navqiron avlod vakillarining yurtimizdagi

islohotlar jarayonidagi ishtirokini oshirish, ular o'z intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoitlar yaratish muhimligiga e'tibor qaratdi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda Qurolli Kuchlarning zamonaviy infratuzilmasi negizida va monomarkazlarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi tadbirlarni yanada jonlantirish, yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish va mehnat faoliyatini boshlashi uchun imkoniyatlar yaratish suv va havodek zarur. Shuningdek, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida, mediamakonda olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik ruhidagi ishlarni yanada kuchaytirish lozim.

Harbiylik – sharaflilik kasb. Uni tanlagan har bir inson o'z oilasi, davlati va xalqini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashi, harbiy xizmatni yuksak sharaf va sadoqat bilan ado etishi lozim. Ushbu vazifa yo'lida nafaqat ta'lim-tarbiyaga mas'ul xodimlar, balki barchamiz o'z zimmamizdagi vazifamizni chuqur his qilishimiz, Qurolli Kuchlarimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni izchil, mazmunli tashkil qilishga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Zero, ta'lim-tarbiya – hal qiluvchi kuchdir.

M. MIRAHMEDOV,
O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasi dotsenti, podpolkovnik.



HAVZALARDA...

Shahrisabz shahar "Navro'z" bog'ida "Cho'milish taqiqlangan suv havzalarida xavfsizlikni ta'minlash" mavzusida viloyat FVDT xizmatlari bilan ko'rgazmali o'quv-amaliy seminar o'tkazildi. Nazariy bosqichni viloyat FVB boshlig'ining favqulodda vaziyatlar profilaktikasi bo'yicha o'rinbosari mayor H.Qosimxo'jayev kirish so'zi bilan ochib berdi.

Shundan so'ng dastur asosida mutaxassislarning mavzuga oid ma'ruzalari tinglandi.

Amaliy bosqichda ishtirokchilarga viloyat FVB MVBM otryadining suvda qutqaruv guruhi asbob-anjomlari ko'rgazmasi tashkil etilib, maxsus asbob-anjomlarning qo'llanilishi bo'yicha tushunchalar berildi. Shundan so'ng, MVBM otryadi suvda qutqaruv guruhining amaliy harakatlari namoyish etildi. Bunda suvda cho'kayotgan fuqaroni qutqarish ishlari hamda cho'kkan fuqarolarni izlash va topish ishlari amalida ko'rsatib berildi.

K.DAVKAROV,
Qashqadaryo viloyati FVB katta o'qituvchisi.

PROFILAKTIKA

Buxoro viloyati FVB OYOXTTEB xodimlari tomonidan "Amu-Buxoro-1" hamda "Amu-Buxoro-2" nasos stansiyalarining yong'in xavfsizligi holati o'rganildi. Tadbirlar davomida korxonaning ishchi-xizmatchilari bilan hamkorlikda birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tushuntirildi. Avtomatik yong'in o'chirish vositalari shayliga alohida e'tibor qaratildi.

R.BABAYEV,
Buxoro viloyati FVB OYOXTTEB bosh inspektori, kapitan.
N. AYNAROVA,
bo'lim katta inspektori, podpolkovnik.

UCHRASHUV

Buxoro viloyati Qorako'l tumani FV bo'limi tomonidan "Qorako'l" MFY va "Yangi O'zbekiston" massivida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha uchrashuv o'tkazildi. Unda 43-DMTT tarbiyalanuvchilari bilan bo'lgan suhbatda zilzila hamda yong'inlar, ularning yuzaga kelish sabablari, to'g'ri harakat qilish borasida keng ko'lamli tushuntirish-targ'ibot ishlari olib borildi.

O'.RAJABOV,
Qorako'l tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

Маърифат соати

АСР ВАБОСОСИ


Инсон учун ҳаёт неъмат, турли ноз-неъматлар, ҳатто минишга уловлару денгиздаги кемаларгача муҳайё этиб қўйилган. Бундан ташқари, яхши ҳаёт кечириш, чиройли умргузаронлик қилиш, соғлом ва бақувват бўлиш учун фойдали, керакли ризқ-рўз ҳам ато этиб қўйилган. Ҳозирги даврга келиб, айрим кимсаларнинг ўз жонлари, моллари, жамиятдаги мавқеларига катта зарар келтирувчи иллатларга мубтало бўлиш ҳолатлари кузатилмоқда. Буларнинг энг ёмони, энг хатарлиси – “аср вабоси”, дея ном олган гиёҳвандлик балосидир.

Бугунги кунда гиёҳвандлик – XXI асрнинг глобал муаммоларидан бирига айланиб улгурди. Урта асрларда инсоният ҳаётига жиддий хавф солган вабо ва ўлат каби офатлар бугунги цивилизация замонида келиб, ўз ўрнини гиёҳвандлик иллатига бўшатиб берди. Соғлом турмуш тарзини олиб бораётган киши биллиб-билмай бу кўчага кириб қолса, ўзининг тинч, фаровон ва бахтли ҳаётини қора зулматга айлантириши айни ҳақиқат. Гиёҳванд киши нафақат ўзига, балки яқинларига ҳам тўхтовсиз азоб беради. Ундан туғилажак фарзандлар эса ота-онасининг хатоси оқибатида бир умрга мажруҳлик қисматида мубтало бўладилар.

Бу иллат инсон тафаккурини ўтмаслаштиради, инсон танаси турли касалликларга чидамлигини йўқотади, хотирасини сусайтиради, кўзни хиралаштиради, тишларнинг тўкилиб кетишига сабабчи бўлади. У инсонларда бош, юрак, сил, ҳар хил ваҳима каби касалликларни пайдо қилади. Инсоннинг жамият учун меҳнат қилиш иқтидорини йўқотади, шарму ҳаёси йўқолади, ҳамма нарсага бепарқ бўлиб қолади. Бугунги кунда гиёҳвандлик дунё жамоатчилигини хавотирга соладиган даражада ёйилиб кетмоқда. Охириги 20 йилда кўп мамлакатларда гиёҳвандлик воситалари билан бирга психотроп ва психофаол моддаларни истеъмол қилувчиларнинг сони ошиб бормоқда.

Саломатликка оид манбаларда қайд этилишича, инсон организмнинг биологик хусусиятларидан бири шундан иборатки, у баъзи моддаларни кетма-кет, бир неча марта қабул қилиши натижасида уларнинг таъсирига ўрганиб қолади. Оқибатда у мазкур моддани мунтазам равишда қабул қилиб туришга интилади, бу моддани қабул қилмаган пайтда ўзини ёмон ҳис этади, яъни одам бу моддага нисбатан мутеъ бўлиб қолади. Организмнинг ўрганиб, мутеъ бўлиб қолиш хусусияти, айниқса, наркотик моддаларга нисбатан кучли бўлади. Фикри ожизимча, айримлар тўқликка шўхлик қилса, бошқалар ўзи билмаган ҳолда – алдовлар натижасида унинг қурбонига айланиб қоляпти. Ёшларнинг ажал гирдобига тушиб қолишида кўпинча оиладаги муҳит ёки эътиборсизлик ҳам сабаб бўлмоқда. Бу дардга

мубтало бўлганлар орасида ёшлар билан бирга, аёллар ҳам борлиги кишини ўйлантиради. Шу маънода, бугун муаммонинг оқибатлари билан эмас, балки сабаблари билан курашиш самаралироқ. Баъзан гиёҳвандлик қурбонига айланиб қолган инсонларнинг қисматини кўриб, уларга нисбатан нафрат, қаҳр ва раҳм туйғуларининг уйғониши табиий. Уларнинг қуриётган дарахт мисол умри эвазига айрим қора ниятли ёвуз кимсаларнинг ҳамёни қаппаймоқда. Одам қиёфасидаги бундай махлуқларнинг қора оғуни вояга етмаган ёшлар орасида тарқатиб, уни истеъмол қилишга тарғиб қилаётганига жим қараб туриб бўлмайди, албатта. Гиёҳванднинг асосий мақсади, интилиши, ҳаётининг мазмуни наркотик топиш ва қабул қилишга қаратилади. Гиёҳванд наркотикни ҳар куну белгиланган вақтида мунтазам равишда қабул қилиши учун кўп пул



керак бўлади. Пул топиш учун ёлғон гапиради, алдаб қарз сўрайди, товламачилик, фирибгарлик қилади. Уйдаги буюмларни сотади, сўнгра қавм-қариндошлари, қўшниларнинг пулини, буюмларини ўғирлайди.

Қанчадан-қанча оилаларнинг ёстиғини қуритаётган гиёҳвандликка қарши ҳар бир инсон ўзи курашмоғи, ташқи таъсирлардан ҳимояланмоғи лозим. Вояга етаётган фарзандларимиз ўтмиши қадим, тупроғи олтин, осмони мусаффо Ўзбекистоннинг келажак ворисларидир. Уларни мана шундай соғлом муҳитда, эзгу тушунчаларни юракларига жойлаб вояга етказайликки, ҳеч қандай ташқи салбий хуружлар ва қора иллатлар ўпқони уларни ўзига жалб қила олмасин.



Ер юзидаги наркобизнесда айланаётган пул маблағи дунё аҳолисининг озиқ-овқат, кийим-кечак, турар жой, таълим тизими ва тиббий хизматга сарфланаётган харажатларидан анча кўплиги билан фарқланиши ҳеч кимга сир эмас. Шу боис, халқлар, миллатлар келажига таҳдид туғдирувчи хатарлардан бири ҳисобланган гиёҳвандлик балосига қарши курашишда давлатлараро ҳамкорлик муҳим аҳамият касб этмоқда. Хусусан, БМТ томонидан “Наркотик моддалар тўғрисида”ги, “Психотроп моддалар” ҳамда “Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш тўғрисида”ги конвенциялар қабул қилиниб, 1987 йил 7 декабрдаги резолюцияга кўра “26 июнь – Халқаро наркотик моддаларини суистеъмол қилиш ва уларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш куну”, деб эълон қилинган.

Дунё бозорида тарқаладиган қора дорининг асосий қисми Афғонистонда етиштирилиб, уни ноқонуний йўл билан Марказий Осиё мамлакатлари орқали Фарбга етказишга бўлган уриниш йилдан-йилга кучайиб бормоқда. Шунинг учун юртимизда наркотик моддаларни истеъмол қилиш ва уларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш масаласига давлат ва миллатнинг эртасини ҳал этувчи омиллардан бири сифатида қараб келинмоқда. Ушбу иллатга қарши курашиш мақсадида бир қатор қонунлар ва халқаро шартномалар қабул қилинди. Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексига ҳам гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятлар ҳамда улар учун жавобгарлик белгиланган.

Дарҳақиқат, шу ўринда айтиш лозимки, гиёҳвандликка қарши курашиш, унинг келиб чиқиш сабаб ва омилларига қарши кураш олиб бориш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади. Шунинг учун ҳам ёшларимиз орасида кучли таъсир қилувчи ва таркибида психотроп моддалар мавжуд бўлган дори воситаларига қарамлик иллатига ружу қўйиш ҳолатларига

умуман чек қўйишга ҳаракат қилинмоқда. Маҳаллаларда, таълим ва соғлиқни сақлаш муассасаларида, барча меҳнат жамоаларида гиёҳвандликнинг инсон соғлиғига зарари ва унинг аянчли оқибатлари ҳақида маънавий-маърифий тарғибот ишлари олиб борилмоқда. Мазкур тадбирларда ёшлар орасида янги турдаги синтетик гиёҳвандлик воситалари ва “енгил наркотик” сифатида оммалашиб бораётган дори-дармонларнинг инсон саломатлиги билан бир қаторда, турмуш тарзига, келажига, яқинларига салбий таъсири тушунтириляпти.

Хулоса ўрнида айтадиган бўлсак, гиёҳвандлик йўлига кириб қолганлар яхшини ёмондан, фойдани зарардан ажрата олмай қолади. Улар нафсларини бир мартагина қондириш учун ҳар қандай мудҳиш жиноятга қўл уришга тайёр туришади. Ўсмирлик даврида инсон гормонал жиҳатдан жуда тез ривожланади. Бу даврдаги ёшларнинг жисмоний ва руҳий ҳолати ниҳоятда жўшқин ўзгаришларга бой бўлади. Фарзандларнинг жамиятда ўз ўринларини топишлари биринчи навбатда, ота-онага боғлиқ экан, улардан талаб этиладигани бу ёшдаги фарзандларининг келажига бепарқ бўлмасдан, жиддий эътибор, алоҳида диққат, тажриба ва билим зарурдир. Гиёҳвандлик ҳар қандай жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти йўлига ғов бўлиш баробарида, айниқса йигит-қизларнинг саломатлиги, келажига, ҳаётига раҳна солмоқда. Мамлакатимизда гиёҳвандликнинг пайини қирқиш, ёшларни бу хатардан асраш юзасидан зарур чора-тадбирлар амалга ошириляпти. Гиёҳвандлик билан шуғулланувчи кимсаларга нисбатан жазолар қўлланилаётганлигини ахборот васиталари орқали бевожита гувоҳи бўлмоқдамиз. Бугунги кунда ёш авлодни баркамол этиб тарбиялашда гиёҳвандлик каби салбий иллатларнинг оқибати ҳақида фарзандларимизга тушунтириш ишларини олиб боришимиз керак. Бу хавфнинг олдини олиш ҳар биримизнинг бурчимиздир.

Анвар ҚОБИЛОВ
тайёрлади.



ЭКОЛОГИЯНИНГ ИНСОНГА ТАЪСИРИ

Айни вақтларда Тошкент шаҳрида экологиянинг ифлосланиши юқори даражани кўрсатмоқда. Бунга қатор сабаблар бор, албатта.

Соғлиқ учун зарар келтирадиган омиллардан бири бу – саноат объектларнинг кўпайиши, яъни улардан чиқаётган захарли чангландир.

Шунингдек, бугунги куннинг энг долзарб мавзупаридан бири бу – орол денгизи сувининг қуришидир. Сувнинг қуриши шўрлик миқдорининг мисли кўрилмаган даражада ошишига сабаб бўлган. Шубҳасизки, бу биз инсонлар учун ҳам ўз таъсирини ўйказмасдан қолмайди. Шунинг учун ҳам, ҳозирда Орол денгизининг қуриган тубида яшип қопламалар бунёд этишга асосий эътибор қаратилмоқда.

Юртимиз аҳолиси ва ҳудудларини турли хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш ишлари Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг жонкуяр, фидойи ходимлари, малакали мутахассислари томонидан тизимли равишда амалга ошириб келинмоқда. Албатта, ушбу ишлар доимий ва бардавом эканлиги билан аҳамиятли ҳисобланади.

Р.СОЙИБЖОНОВА,
тайёрлади.

Бугунги Янги Ўзбекистон даврида “Обод қишлоқ”, “Обод маҳалла”, “Беш муҳим ташаббус”, “Ҳар бир оила – тадбиркор”, “Ёшлар – келажакимиз” каби дастурлар доирасида ёшларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг иқтидор ва имкониятларини рўёбга чиқариш борасида амалга оширилаётган тадбирлар амалда ўз ижобий самарасини бермоқда.

ЭЪТИБОР ВА РАҒБАТ

Шунингдек, мамлакатимизда юқори билим ва мапакага эга бўлган, рақобатдош кадрлар тайёрлайдиган олийгоҳлар сони ортиб бормоқда, хорижий олий таълим муассасаларининг филиаллари очилмоқда. 2030 йилга қадар мактаб, пицей ва коллеж битирувчиларини олий таълим билан қамраб олиш даражасини 50 фоизга етказиш режа қилинган.

Навқирон ўғил-қизларнинг тадбиркорлик соҳасидаги ғоя ва ташаббусларини рўёбга чиқариш, уларни иш ва даромад манбаи билан таъминлашга давлат миқёсида катта аҳамият берилмоқда. Ана шундай эътибор туфайли 30 ёшгача бўлган тадбиркорлар сафи тобора кенгайиб, ушбу тажриба соҳа ривожига муҳим роль ўйнамоқда.

Энг муҳим ва хайрли ташаббус – 30 июнь санасини “Ёшлар куни” деб белгиланганлиги мамлакатимиз ёшлари учун ўзгача мотивация бўлди, десак муболаға қилмаган бўламиз. Ўзбекистон ёшларининг давлат раҳбари билан юзма-юз мулоқоти уларга янги куч ва ғояларни туҳфа этмоқда.

Мен ҳам ўз фарзандларини ота-онасидек севган, уларга ишонч, умид ва оптин имконларни туҳфа этаётган серкўёш Ўзбекистон, бағрикенг ўзбек халқининг дилбанди эканлигимдан ғоят фахрланаман. Ишонч билан айтаманки, мен ҳам келажакда улкан билим ва салоҳиятга эга кадр сифатида улғайиб, халқимга, Ватанимга садоқат билан хизмат қиламан.

Ж.ОЛИМЖОНОВА,
Поп туманидаги 12-умумтаълим
мактабининг 11-синф битирувчиси.

МУСАФФОЛИК САРИ

Жаҳон банки таҳлилларига кўра, 2050 йилга бориб, Ўзбекистонда жорий сув танқислиги 5 баробарга ортади. Атмосфера ҳавосининг ёмонлашишига энг кўп сабаб сифатида автотранспорт воситаларидан чиқаётган ташламалар, қурипиш ҳажмининг ортиши ва саноат корхоналарининг чиқиндиларини кўрсатиш мумкин.

Электромобиллар атмосфера ҳавосига ифлослантирувчи моддалар чиқармаслиги ва шовқин билан ифлосланишнинг камайишига оғир келиши, углеводород ёнилғи сарфини камайтириши ҳамда бошқа техник афзалликлари

билан ички ёнув двигателли автотранспорт воситаларидан устунлиги билан ажралиб туради. Бу, айниқса, бугунги глобал ривожланиш ва иқлим ўзгаришлари ҳамда углеводород захираси кескин камайиб бориш даврида янада муҳим аҳамият касб этади.

Экологик масалаларни ҳақ этишда фуқароларнинг экологик дунёқараши ва тафаккури ўзгариши, экологик тарбия ва қадриятларнинг мустаҳкам шаклланиши сезиларли натижапар беради.

Г.СҮЮНОВА
тайёрлади.

Кўчки бу – қор, муз ёки тош аралаш лойнинг тоғ ёки қир-адирлардан пастга тушадиган массасидир.

КҮЧКИ

Тоғ қанчалик тик бўлса, кўчки хавфи шунча юқори бўлади. Тик тоғ ёнбағри ёки жарлик сувга тўйинади ёки бошқа бир тарзда заифлашади. Бундай тик қияликда ер ортиқ ўзини ушлаб туролмай, ўпирилиш бошланади. Бундай ўпирилиш ёки кўчкилар кўпинча баҳорда, эриётган қор ва муз тупроқни сув билан тўйинтириши туфайли содир бўлади. Шунингдек, бу дарё ўзанидан чиққанда ёки одамлар тик тоғ ёнбағрининг этагида йўл қураётган ёхуд конларда ишлаб чиқаришни ташкил қилган жойларда ҳам содир бўлиши мумкин.

Аксарият ҳолларда кичик қор кўчкиси ўз йўлидаги катта қор массаларини жойидан силжитиб, йўл-йўлакай катталашиб, ҳало-



катли куч тўплаб бораверади. Қор зўрға ушланиб турган жойларда ҳатто одам овози ҳам қорнинг катта массаларини жойидан силжитиб, қор кўчкиси бошланиши учун етарли бўлиши мумкин. Бунинг сабаби шундаки, товуш ҳавони тебратади ва бу тебранишлар қор кўчишига олиб келади.

С.МАҲМУДОВА
тайёрлади.



ТҮҒФОНЛАР

Сувости силкинишлари ва вулқон кўчишлари ўта кучли бузғунчи тўғфонларни юзага келтиради. Бу тўғфонлар сейсмик тўғфонлар дейилсада, бутун дунёда уларни цунамилар деб аташади. Бу сўз япон тилидан олинган бўлиб, кўрфаздаги улкан тўғфон деган маънони англатади. Уларнинг кучи ҳамда тезлиги ақлбодар қилмайдиган даражада бўлади. Соатига 800 км. тезликка эга бўлган бу тўғфон ер шарини ўз кучини асло йўқотмаган ҳолда бир зумда айланаб чиқиши мумкин.

1883 йилда улкан вулқон отилиши Кракатау оролини деярли йўқ қилди. Ушбу портлаш юзлаб қишлоқларни йўқ қилган

бир неча ўн метр баландликдаги тўғфонларни юзага келтирди. Тўғфонлар океан бўйлаб соатига 1300 км. тезликда ҳаракатланиб, фалокат юз берган жойдан минглаб километр узоқликдаги Австралия ва Калифорния қирғоқларига етиб борган.

1946 йилда Алеут ороллари ҳудудида сувости zilzilаси содир бўлди. Натижада пайдо бўлган улкан тўғфон беш соатдан камроқ вақт ичида деярли 4 минг км. масофани босиб ўтиб, Гавайи ороллари босди. У қирғоқдан юзлаб метр нарида бўлган уйлар ва кўприкларни вайрон қилган.

Х.ЖАЛИЛОВА
тайёрлади.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқулодда
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СҮЮНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқланиши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун – 382

Газета "BUSINESS PRINT DESIGN"
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 6000 нуска